XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 5-aprel VII-7-66-3-48-K/25 Zomin tumani

2025-yil mahalliy budjetining xarajatlar qismiga o‘zgartirish kiritilsin

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunning 6, 24 moddalari hamda Budjet kodeksining 27,148- moddalariga ko‘ra joriy yil 22-fevraldagi Vazirlar Mahkamasining yig‘ilishida berilgan topshiriqlarga asosan “Hududiy mahalliy budjetlarda 2025-yil ijrosi mobaynida **“tejamkor va barqarorlikni ta’minlash”** tamoyili asosida budjet mablag‘laridan tejamkorona va oqilona foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Zomin tumani mahalliy budjetining 2025-yil ijrosi mobaynida mablag‘lardan oqilona, tejamli va maqsadga muvofiq ishlatishni tashkil etish, shuningdek budjet ijrosi mobaynida vujudga keladigan debitor va kreditor qarzdorliklarni vujudga kelishi xolatlarini oldini olish maqsadida, Xalq deputatlari tuman Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Zomin tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash haqida”gi VII-4-025-3-48-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2025-yil mahalliy budjetining xarajatlar qismiga ilovalarga asosan o‘zgartirish kiritilsin.

2. Mahalliy budjet ijrosi jarayonida tuman hududida obodonlashtirish, ko‘kalamzorlashtirish hamda ichki yo‘llar hududlarida yashil hududlarni mablag‘ bilan ta’minlash yuzasidan takliflar berish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosar (Z.Omonqulov) ga yuklatilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining birinchi o‘rinbosari (D.Mamatqulov)ga mazkur vazifalarni bajarish maqsadida mahalliy budjetga tegishli o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

4. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komisiyasi (E.A.Eshkuziyev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



ABDUGANIYEV
ALISHER
MUXAMMADIYEVICH

Xalq deputatlari Zomin tumani Kengashining
2025-yil 5-apreldagi
VII-7-66-3-48-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Zomin tumani mahalliy budjetiga mablag‘lardan oqilona va tejamkor foydalanish maqsadida kiritiladigan o‘zgarishlar miqdorlari

mln so‘m

Bo'lim	Kichik bo'lim	Bob	Xarajat			Summa (ming so‘m)	O‘zgartirish	
			Toifa	Modda	Element		kamayish -	ko‘payish +
7091	100	72	42	52	110	- 500 000	- 500 000	
7092	100	72	42	52	110	- 450 000	- 450 000	
7092	100	72	42	99	990	- 450 000	- 450 000	
7011	204	18	42	99	990	200 000		200 000
7064	200	84	42	52	110	100 000		100 000
7065	200	84	42	52	110	400 000		400 000
7065	200	84	48	21	190	500 000		500 000
7042	133	82	42	99	990	60 000		60 000
7083	610	205	42	11	.000.	100 000		100 000
7109	120	91	42	99	990	40 000		40 000

XAMMASI						-	- 1 400 000	1 400 000

Xalq deputatlari Zomin tumani Kengashining
2025-yil 5-apreldagi
VII-7-66-3-48-K/25 -son qaroriga
2-ilova